

FARG'ONA–TOSHKENT MAQOM YO'LLARI: TARIXI, USLUBIY XUSUSIYATLARI VA ZAMONAVIY AHAMIYATI

Mirmahmudov Oyatillo Orifjon o'g'li

FarDu talabasi Vokal san'ati yo'nalishi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Farg'ona–Toshkent maqom yo'llarining shakllanish tarixi, uning boshqa hududiy maqom maktablaridan farqlovchi uslubiy xususiyatlari hamda XXI asrda mazkur merosning o'rganilishi va zamonaviy musiqa amaliyotidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot nazariy manbalar, tarixiy qo'lyozmalar, amaliy ijrochilik tajribasi va zamonaviy musiqashunoslik tadqiqotlariga asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *Farg'ona–Toshkent maqom yo'llari, Shashmaqom, maqomchilik, mumtoz musiqa, lad-intonatsiya, ijrochilik uslubi.*

KIRISH

O'zbek xalqining ko'p asrlik musiqa madaniyati Markaziy Osiyo hududida shakllangan uch yirik maqom maktabi — Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari va Farg'ona–Toshkent maqom yo'llari bilan chambarchas bog'liq. Mazkur maqom yo'llari Sharq musiqasining umumiy qonuniyatlariga asoslangan bo'lsa-da, o'zining mahalliy uslubiy xususiyatlari, kuy tuzilishi, tembr boyligi, ijrochilik maktabi va janr tiplari bilan ajralib turadi.

Farg'ona–Toshkent yo'llari XIX asr oxiri – XX asr boshlarida keng tarqala boshlagan bo'lib, bugungi kunda o'zbek musiqiy merosining eng yuksak badiiy namunalaridan biridir.

Farg'ona–Toshkent maqom yo'llarining tarixiy shakllanish omillari.

Farg'ona vodiysi va Toshkent hududida keng tarqalgan an'anaviy musiqiy tajriba asosida shakllangan maqom yo'llari ilmiy adabiyotlarda odatda "Farg'ona–Toshkent maqom yo'llari" nomi bilan yuritiladi. Ushbu musiqa tizimi tarkibiy jihatdan Buxoro Shashmaqomi va Xorazm maqomlaridan sezilarli darajada farq qiladi.

Avvalo, Farg'ona–Toshkent an'anasida maqomlar yaxlit, qat'iy tuzilgan bir turkum sifatida emas, balki alohida cholg'u kuylari va ashula yo'llari majmui sifatida shakllangan bo'lib, ularning har biri mustaqil ijro tizimiga ega.

Farg'ona–Toshkent maqom yo'llari — Toshkent va Farg'ona vodiysi (Qo'qon, Namangan, Andijon, Farg'ona, Marg'ilon, Quva va boshqalar) musiqa amaliyotida yuzaga kelgan maqom namunalarining umumlashma nomi.

Shashmaqom va Xorazm maqomlaridan farqli o'laroq alohida-alohida cholg'u va ashula yo'llaridan iborat.

Mazkur hudud musiqiy merosida ayniqsa quyidagi cholg'u yo'llari muhim o'rin tutadi:

"Nasrullo I–V", "Munojot I–IV", "Ajam va Taronalar", "Segoh I–III", "Cho'li Iroq", "Miskin" kabi kuy yo'llari ijrochilik amaliyotida keng qo'llanadi.

Ushbu an'ana doirasidagi asosiy ashula yo'llari esa "Chorgoh I-V", "Bayot I-V", "Bayoti-Sheroziy I-V", "Ko'cha bog'i I-II", "Gulyor Shahnaz I-V", "Segoh", "Dugoh-Husayni I-VII", "Toshkent Iroqi" kabi turkumlarni o'z ichiga oladi. Ushbu yo'llar nafaqat musiqiy shakl va ohang tizimi, balki ijro uslubi, diapazon, lad-intonatsion xususiyatlari bilan ham o'ziga xosdir.

Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari o'zining kuy va ashula tizimi, mavzularining lirik-ekspressiv xarakteri, shuningdek, ijrochilikdagi badiiy erkinlik bilan ajralib turadi. Shu bois, mazkur yo'nalish o'zbek musiqa madaniyatining alohida mustaqil tarmog'i sifatida shakllangan va bugungi kunda ham ijrochilik amaliyotida muhim o'rin egallamoqda.

An'anaviy ijrochilik an'anasida ushbu turdagi maqomlar uchun xos bo'lgan cholg'u ijrosi, asosan, dutor, tanbur, g'ijjak, nay va doira kabi milliy cholg'ular jamlanmasidan tashkil topgan ansambl tomonidan bajarilgan. Mazkur ansamblning tarkibi torli va puflama cholg'ularning o'zaro uyg'unlashuvi orqali maqom kuylarining ohangiy tuzilishini boyitib kelgan.

Maqomning ashula bo'limlari esa malakali hofizlar tomonidan tanbur yoki boshqa cholg'ular ansamblining jo'rligida ijro etilgan bo'lib, ijro jarayonida ohangning badiiy ifodasi hamda matnning mazmuniy teranligi asosiy estetik mezon sifatida qaralgan.

Ushbu maqom ashula yo'llarining poetik manbasi o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakillari — Alisher Navoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mashrab, Muqimiy va boshqa adiblarning g'azal va she'rlari bilan bog'liq bo'lib, aynan shu she'riy asos maqom ashulalarining falsafiy-badiiy mazmunini yanada yuksaltiradi.

Tarixiy manbalar va dastlabki rivojlanish bosqichlari.

XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo hududida milliy kuy-qo'shiqchilik san'atining rivojlanishida Ashurali Mahramning ijodi muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, Farg'ona vodiysi va Toshkent maqom yo'llarining shakllanishi hamda takomillashuvida uning alohida hissasi bo'lgan.

Ashurali Mahramning "Husayn", "Chorgoh", "Bayozi", "Guleri shaxnoz", "Dugoh" kabi maqom yo'llariga bastalagan kuy va ashulalari o'z davrida keng tarqalgan bo'lib, Farg'ona hamda Toshkentlik hofizlar orasida mashhur bo'lgan. Uning ijodi keyingi avlod san'atkorlari uchun ham muhim ijroiylar maktab vazifasini o'tagan.

Maqom yo'llarining shakllanishi qadimgi Sharq musiqiy tizimlari — "dastgoh", "usul", "sho'ba", "navo" tushunchalari bilan bog'liq. Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Darvesh Ali Changiy kabi allomalar musiqa nazariyasi rivojiga asos soldi.

Farg'ona-Toshkent maqom san'ati yo'nalishi Buxoro va Xorazmning markazlashgan yirik an'anaviy maqom maktablaridan muayyan jihatlari bilan farq qiladi. Ushbu yo'nalishning shakllanish jarayoni, avvalo, Farg'ona vodiysi hamda Toshkent atrofidagi hududlarda faoliyat yuritgan rang-barang kichik ijodiy guruhlarining mavjudligi bilan izohlanadi.

Mazkur hududlarda – Qo'qon, Marg'ilon, Isfara, Andijon, Namangan, Xo'jand, Toshkent, Chimkent, Qashqar va boshqa shaharlarda yetishib chiqqan maqom ustozlari o'zaro ijodiy aloqalar o'rnatgan bo'lib, ushbu jarayon Farg'ona–Toshkent maqom an'anasining shakllanishida muhim omil bo'lgan.

Farg'ona–Toshkent maktabining mustaqil tizim sifatida shakllanishi esa XVIII–XIX asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda:

Farg'ona vodiysida xalq oqin–ashulachilik an'analari keng rivojlandi;

Toshkentda saroy musiqachiligi, hofizlik va cholg'uchilik maktablari faol bo'ldi;

Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari ijrochilari mazkur an'anani odatda mashhur ustozlardan o'rganishgan.

Shu tarzda bu maqomlarni bizga yetkazib bergan taniqli talqinchilar qatorida Abduqodir naychi, Ahmadjon qo'shnay, A.Yusupov (surnay), Shobarot tanburchi, A.Abdullayev (tanbur), Muhiddin Najmiddinov (dutor, tanbur), Komiljon Jabborov (g'ijjak, dator), Saidjon Kalonov (nay), Faxriddin Sodiqov (chang, dator), G'anijon Toshmatov (g'ijjak), Turg'un Alimatov (tanbur, dator).

Hofizlar — Shorahim Shoumarov, To'ychi hofiz, Shojalil hofiz, Ilhom hofiz, Sodirxon hofiz, Rajabiylar, Rasulqori Mamadaliyev kabi ustoz san'atkorlarning xizmatlari katta. Bastakorlardan To'xtasin Jalilov, Orifxon Hotamov, Fattohxon Mamadaliyev, so'nggi yillarda Abduhoshim Ismoilovlar Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari an'alarida turkumli va alohida ijro etiluvchi asarlar yaratishgan.

Shashmaqom bilan o'zaro aloqadorlik.

Farg'ona–Toshkent yo'llari Shashmaqom tizimi bilan mushtarak asosga ega bo'lsa-da:

O'z moxiyatiga ko'ra Farg'ona -Toshkent maqom yo'llari Buxoro "Shashmaqom" i, Xorazm olti yarim maqomlari yoki boshqa bir tizimning ko'chirmasi emas, balki mushtarak maqomat negizida sozanda va bastakorlar tomonidan ishlangan shakllidir.

Mazkur san'at turi mukammal va murakkab bo'lib, ijrochilardan juda katta maxoratni talab qiladi:

-kuylar yanada bayramona, keng nafasli, yumshoq lirizmga ega;

-ashulalarda xalqona ohanglar ko'proq;

-ijro shakllari yengil va ravon;

-tembr jihatidan tansiq, jarangdor ohanglar ustuvor.

Shu sababli ilmiy adabiyotlarda ular "mahalliy maqom yo'llari", "ashula yo'llari", "Farg'ona maktabi" deb ham yuritiladi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, Farg'ona–Toshkent maqom yo'llari O'zbekistonning milliy musiqa merosida alohida o'rin tutadigan, tarixiy ildizlari chuqur va badiiy-estetik jihatdan yuksak rivojlangan an'anaviy musiqa tizimidir. Ushbu yo'nalishning shakllanishi Farg'ona vodiysi va Toshkent atrofida mavjud bo'lgan musiqiy maktablar, ijrochilik an'analari hamda mahalliy bastakorlik faoliyatining o'zaro uyg'unlashuviga asoslanadi. Tizimning o'ziga xos xususiyati shundaki, u Shashmaqom yoki Xorazm maqomlarining bevosita ko'chirmasi emas, balki umumiy sharqona maqom

tamoyillari negizida, ammo mahalliy uslub va badiiy dunyoqarash asosida mustaqil ravishda taraqqiy etgan.

Maqom yo'llarining kuy va ashula tuzilishidagi lirizm, keng nafaslilik, ohanglarning jarangdorligi va intonatsion boyligi Farg'ona–Toshkent maktabining bosh mezonlaridan hisoblanadi. Ayniqsa dutor, tanbur, g'ijjak, nay kabi milliy cholg'ularning o'ziga xos tembr imkoniyatlaridan keng foydalanilishi mazkur yo'nalishga alohida joziba baxsh etadi. Ashula bo'limlarining mumtoz adabiyotning yirik namoyandalari — Navoiy, Lutfiy, Sakkokiy, Bobur, Mashrab va boshqalar ijodi bilan uzviy bog'liqligi esa badiiy ifoda darajasini yanada yuksaltiradi.

Farg'ona–Toshkent maqom an'anasining shakllanishi va rivojlanishida Ashurali Mahram, Shorahim Shoumarov, To'ychi hofiz, Shojalil hofiz, Komiljon Jabborov, Turg'un Alimatov, Saidjon Kalonov kabi mashhur hofiz va sozandalar, shuningdek To'xtasin Jalilov, Orifxon Hotamov, Abduhoshim Ismoilov kabi bastakorlarning hissasi nihoyatda katta bo'lgan. Ular yaratgan ijroiylar uslub, kuylar va talqinlar bugungi avlod uchun ham muhim metodik maktab vazifasini o'tab kelmoqda.

Mazkur an'ananing ilmiy ahamiyati shundaki, u nafaqat tarixiy musiqa manbalarining o'rganilishiga, balki xalqning badiiy tafakkuri, estetik dunyoqarashi va musiqiy fikrlash mentalitetini anglashga xizmat qiladi. Amaliy ahamiyati esa zamonaviy sahna ijrochiligi, musiqa ta'limi, dastlabki bastakorlik jarayonlari va ilmiy tadqiqotlarda namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda Farg'ona–Toshkent maqom yo'llari UNESCO tomonidan e'tirof etilgan nomoddiy madaniy merosning ajralmas qismi sifatida xalqaro miqyosda ham katta qiziqish uyg'otmoqda.

Xulosa

Shu bilan birga, mazkur yo'nalishning tizimli ravishda o'rganilishi, notaga olinishi, ilmiy-tahliliy nashrlarning ko'paytirilishi, ijrochilik maktablarining rivojlantirilishi va yosh avlodga yetkazilishi dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Xulosa qilib aytganda, Farg'ona–Toshkent maqom yo'llari o'zbek musiqa merosining noyob zamini sifatida nafaqat tarixiy, balki zamonaviy musiqa hayotida ham o'z o'rnini saqlab kelayotgan, boy imkoniyatlarga ega san'at tizimidir. Ushbu an'anani yanada chuqur o'rganish va rivojlantirish kelajak avlodning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasida muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahmatjon Tursunov, Sultonali Mannopov. "An'anaviy qo'shiq ijrochiligi uslubi". Toshkent, 2003.
2. Abdumutal Qabarov, Sultonbek Mannapov, Mavluda Najmetdinova. "O'zbek san'ati tarixi". Farg'ona 2021.
3. Dilshodbek Toshaliyev, "Maqom asoslari". 2024.